

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUOMALA MADANIYATI VA PEDAGOGIK MUOMALA USULLARI

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Qurbonova Nigina Boboxo‘jayevna
+998936868389*

Annotatsiya: Maqolada o‘qituvchilarni tarbiyalash jarayonida e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar, kreativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini shakllantirishda pedagogik muomala madaniyati va pedagogik muomala usullari manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida keng yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik amaliyot, stajirovka, kadr, qobiliyat, muomala, sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiylilik, mafkura, e‘tiqod, layoqat, salohiyat, muloqot.

O‘qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarda shaxsiyatga yo‘nalganlikni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta’kidlanadi. Respublikamizda o‘qituvchilik kasbining o‘ziga hos etnopsihologik fazilatlari, hislatlari, qobiliyatlari ish uslublari mahoratga erishishning yo‘llari, shaxslararo muomala maromlari yuzasidan har hil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini aytib o‘tish kerak. Pedagogik muomalaning to‘g‘ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta’sir ko‘rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo‘lib qoladi, auditoriya bilan muomalada bo‘lish jarayonining o‘zi soddalashadi, u pedagogning o‘zi uchun yoqimli, uzviy bo‘lib qoladi;

ikkinchidan, talabalar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish jarayoni ancha engillashadi;

uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy hotirjamligining ijobiy negizida ro‘y beradi.

Talabalarda muomalalarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Talabalar muomalasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy hususiyatlarini o'rganish va ularni talabalarning anglab etishi. Talabalarning mustaqil tahlil qilishi, o'zaro har tomonlama tavsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. Talabalar shu maqsadda «Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?» mavzuida insho yozadilar, bir-birlariga shunga o'hashish mazmunda tavsifnoma tayyorlaydilar va hokazo.

2. Shaxsiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni engish.

3. Pedagog uchun muomalaning hissiy jihatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Muomalada o'z individual uslubi asosida pedagogik muomala tarkibiy qismlarini egallash (mahsus mashg'ulotlarda) sohasidagi ishlar.

5. O'z muomala uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muomaladan iborat yahlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muomala uslubiga aniqliklar kiritish (mahsus mashg'ulotlarda).

6. Haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida talabalar bilan muomala qilish, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida).

Ishni endi boshlayotgan o'qituvchi individual muomala uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muomalaning jihatlari muhim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan talabalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan habardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning hotirasida guruh bilan muomalaning oldingi hususiyatlarini tiklashni, muomala vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o'z muomala uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. SHuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ohang, hulq-atvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich: Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Talabalar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muomala obektining diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir. Muomala obektining, ya'ni talabaning diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psihologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan talabalar diqqatini jalb qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har

doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muomalaning ahamiyati bilan bog'liq ravishda pedagogik muomala madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbkorlik fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli sohalarda muntazam muomala qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Mamlakatimizning o'qituvchisi quyidagi tomonlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim:

mustaqil respublikamizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiyluk tuyg'ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

bolalarga, o'quvchilarga, hattoki jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy mehr – muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlari, hulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va voqeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlariga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni pertseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlari hususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiya yo'llashga qobilligi;

favqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart – sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatligi;

pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

umumiy qiziqishi ko‘lamining kengligi, bilishga oid qiziqishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatliligi, muayyan salohiyat, mahorat darajalariga erishganligi; muomala maromi, nutq madaniyati, mantiqan ihcham, ma’nosi kuchli, ta’sirchan fikr uzatish, ta’sir o‘tkazish uquvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o‘qituvchi muomaladoshiga to‘g‘ri, omilkor axborot uzatishi va unga suhbatdoshini ishontira bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zining o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish yo‘li bilan o‘z-o‘zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o‘rinda o‘z shaxsiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qilish, talabalar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo‘lgan muomalada olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan bo‘lgan muloqotda oldingi muomalaning hozirgi darajasini tahlil qilish, muomala haqida o‘zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish, sizning muomaladagi imkoniyatlaringizni boshqalar (talabalar, o‘qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O‘zida dilkashlikning asosiy hususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ihtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

3. Talabalar va kishilar bilan xilma-hil jamoat ishlari olib borish, bunda o‘zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma’ruzalar, suhbatlar) hosil bo‘ladi.

4. Muomalada salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko‘rish pedagogning kasbkorga oid shaxsiy fazilati bo‘lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

Pedagogik muloqot va uning ahamiyati. Ibtidoiy to‘zum davridan boshlab, kishilar ma‘lum ijtimoiy munosabatlar asosida bir – birlari bilan aloka kila boshlaganlar. Muloqot insonning mexnat faoliyatida eng muxim soxa xisoblangan.

Bashqacha aytganda, muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma‘naviy asosi natijasida yo‘zaga kelayotgan ijtimoiy extiyojlar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

«Shaxslar faoliyatining motivatsiyasining asosi sifatida yo‘zaga chikayotgan extiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy – iktisodiy omillar ma‘lum ma‘noda ularni maksadli uy – fikrlari, istaklarini yo‘zaga chikishga ham sabab bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini kay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta’sir utkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi urin egallab, u insondagi eng muxim extiyojlarni jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb xisoblash bilan bog‘liq extiyojni kondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati

kattadir». (V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent. 1994 yil. 35 – bet). Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chikadigan turli faolliklari mobaynida bir – biri bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

«Har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan faoliyatlari o‘zaro munosabat va ta‘sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish avvalo odamlarning bir – birlari bilan til topishishni, bir – birlariga turli xil ma‘lumotlarni o‘zatishtni, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffakkiyati, obrusi uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bir qarashda osonga uxshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo‘lib, unga odam xayoti davomida o‘rganib boradi. Muloqotning psixologik jixatdan murakkab ekanligi haqida tanikli psixolog B.F.Pargin shunday yozadi:

- a). individlarning o‘zaro ta‘sir jarayoni;
- b). individlar o‘rtasidagi axborot almashinuv jarayoni;
- v). bir shaxsning bashqa shaxsga munosabat jarayoni;
- g). bir kishining bashqalarga ta‘sir ko‘rsatish jarayoni;
- d). bir – biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;
- ye). shaxslarning bir – birini tushunish jarayoni.

Muloqot o‘z xususiyatlariga ko‘ra turli shakl va ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy – ma‘naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o‘zida aks ettiradi. («Xalq ta‘limi» jurnali, 2003 yil, 3 – son, 48 – bet).

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomala odobi. O‘qituvchi va o‘quvchi, domla va talaba o‘rtasidagi munosabat va muomala madaniyati ularning fe‘l – atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy xayotda namoyon bo‘lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko‘zga tashlanadi. Ukimishli, madaniyatli, o‘qituvchi hamkasbidan, o‘quvchisidan nimani, qanday surashni, u yoki bu masala yo‘zasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yukligini, oilaviy munosabatlarga daxldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi – yukligini yaxshi anglaydi. Muomala jarayonida suxbatdoshining kayfiyatini kutarish, unga optimistik ruh bagishlash, uning o‘z kuchiga ishonchini xosil qilish ham o‘qituvchining eng muxim sifatlaridan biridir. Shuni aloxida ta‘kidlash kerakki, tom ma‘nodagi muomala madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi shuxratparastlik, manmanlik, befarqli, xasadguy, giybatchilik kabi illatlarga tokat kila olmaydi va unga karshi ko‘rashadi.

O‘qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutk madaniyati bilan bog‘liq. (Biz o‘z ishimizning bir mavzusini «O‘qituvchi nutki – pedagogik mahorat shartidir» deb nomlaganmiz, u mavzuga o‘qituvchi nutki haqida tulik

tafsilot berilgan. X.B.). Chunki nutk va unda ifodalangan soʻz kishiga taʻsir etuvchi kudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat oʻzining mazmuni bilan, balki soʻzlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham taʻsir darajasi va kudrati yanada ortishi mumkin.

«Ingliz dramaturgi B.SHou aytganidek, «Xa» soʻzini aytishning 50 dan ortik uslubi bor, «Yoʻq» soʻzini ham shuncha uslubi bor, ammo bu soʻzni yozishni faqat bir uslubi bor». (Xalq taʻlimi jurnali, 2003 yil, 3 – son, 49 – bet).

Bu fikrning zamirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik kochirim maʼno yashiringan. Zotan oʻqituvchi muloqotining zamirida soʻz, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir oʻqituvchining saviyasi, maʼnaviy dunyosi, madaniyatiga bogʻliq. Bundan kelib chikadiki, oʻqituvchi oʻz muomalasida meʼyorni bilishi lozim.

Oʻqituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki shu bilan birga ishlab chikarish, mexnat jamoasi, ota – onalar bilan, jamiyat xayotiga ham kerakligini xisobga oladigan boʻlsak, bugungi kunda oʻquvchi, talabalar feʼl – atvorini oʻrganish, ularning bir – birlariga mehr – muruvvatli boʻlishga oʻrgatish, diniy akidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish eng muxim, dolzarb vazifa boʻlib kelmokda. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy extiyoj sifatida oʻz ahamiyatini yuqotmagan. Atoqli adib B.SHou soʻzlari bilan aytgand: «Biz hozir xavoda kush kabi uchishni, suvda balik kabi soʻzishni oʻrganib olgan boʻlsakda, bizga bir narsa – insonlardek yashashni oʻrganib olish yetishmaydi». Mashxur izkuvar Sherlok Holms taʻkidlaganidek : «Har bir inson oʻz xususiyatiga koʻra xal etilmaydigan jumbok»dir. Kishilar xulqi, feʼl – atvori bilan bir – birlaridan farq kiladilar, ammo ular orasidagi uxshashlik mikdori minimum foiz doimiy holatda saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashki turki – tarovatigina emas, balki ichki olami, maslagi. Insoniy kiyofasi, hozirgi koʻrinishi va holatdagi yetib kelishi oʻzok tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot natijasida esa kishilar oʻrtasidagi muloqot hamda muomala madaniyati toʻrganligi sir emas. Shu sababli oʻqituvchining muloqot madaniyatida ham okilola extiyojni anglab olish eng muxim vazifadir.

Muloqot shu darajada muxim ekan, biroq shaxslararo muloqotga xech kim, xech kaerda maxsus oʻrgatilmaydi.

Oʻqituvchining oʻquvchilar bilan muloqot olib borish yullari. Oʻqituvchining ish faoliyati davomida oʻquvchilar bilan muomala – munosabatlari katta urin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat tuplagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini egallab oladi. Oʻqituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs boʻlib xizmat kiladi, unga yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham

o'qituvchiga bolaning muomalasiga, axloqiga, xulqiga nisbatan aloxida, katta talablar kuyilgan.

O'qituvchi xayotga endigina kadam kuyayotgan bolalar bilan doimo muloqotda bo'ladi. Bolalar o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf – odat mezonlarini o'zlashtiradilar. O'qituvchi muomala odobini, muloqot olib borish yulini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi.

Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bo'lib kolmaydi. O'zining ko'pol muomalasi bilan o'qituvchini ukishdan sovitib, dilini ranjitadigan o'qituvchilar ham axyon – axyonda uchrab turadi, albatta.

Xulosa

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni ilmiy jihatdan o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu sohada yetarli darajada muammolar mavjud.

Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida o'qitish, o'rganish tarbiyalash, qayta tarbiyalash masalalari bilan bog'liq ehtiyojlar, talablar, manfaatlar, intilishlar, imkoniyatlar, maqsadlar, qiziqishlarni o'zida mujassamlashtirib, ta'lim-tarbiyaga oid ko'pgina muammolarni hal etishga ko'maklashishga qodirdir. Jumladan:

- Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni loyihasini ishlab chiqish;
- diagnostik tahlil asosida o'qituvchining bilish faoliyatini maqsadga yo'naltirish;
- ta'lim maqsadi, vazifalari uni amalga oshirish shakllari, usullarning bog'liqlikda va o'zaro ta'sirda bo'lishini ta'minlash;
- ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini erkin ta'minlash;
- o'qituvchi-yoshlarning faolligi, qiziquvchanligi, tashabbuskorligini oshirish, bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va tuzatishlar kiritish;
- ta'lim maqsadlari, vazifalari, mezonlarga binoan test topshiriqlarini to'g'ri bajarish;
- ta'lim samaradorligini ta'minlashga erishish.

Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish asosida pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya amaliyotida tadbqiq etish va oliy ta'lim muassasalarida aniq innovasion muhitni yaratishni nazarga tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo 'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O 'quv qo 'llanma. – T.: O 'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Angelovski K. Uchitelya i innovasii: Kn. dlya uchitelya / K. Angelovski: per. s maked. – M.: Prosveteniye, 1991. – 159 s.
3. Alimov A.A. Bo 'lajak kasb ta'limi o 'qituvchilarini shaxsga yo 'naltirilgan texnologiyalar asosida innovasion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.
4. Balashov M.M. Problemy gotovnosti molodykh uchiteley k innovatsionnyim prosesam v obrazovanii / M.M. Balashov, M.I. Lukyanova // Problemy adaptatsii uchitelya k professionalnoy deyatelnosti. – Ulyanovsk, 1998. – S. 5-14.
5. Barkamol avlod – O 'zbekiston tarakqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997. – 64 b.
6. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahlidinov. to 'ldirilgan 2-nashri. – T.: «O 'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 248 b.
7. Barotov Sh. O 'quvchi shaxsini o 'rganish usullari: Maktab o 'qituvchilari va pedagogika institutlari o 'quvchilari uchun qo 'llanma. – T.: O 'qituvchi, 1995. – 56 b.
8. Baubekova G.D. XIX asr boshlarida O 'rta Osiyo ma'rifatparvarlarining ta'limiy-axloqiy qarashlari: Ped.fanlar dokt. diss. – T.: 2002. – 236 b.
9. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 250 b.
10. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 256 s.